

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA YANGI  
PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN VA METODLARDAN  
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**



*Meliqulova Zumrat Yuzboyevna  
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani MMTT tassarufidagi 45-sonli mактабning  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirishda pedagogic texnologiyalar, metodlar va texnik vositalardan foydalishning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish hamda pedagogik texnologiyalardan foydalishning o‘quvchi va o‘qituvchining pedagogik jarayonidagi o‘zgarishlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** kommunikatsiya, texnologiya, axborot, texnik vosita, ta’lim, oqituvchi, pedagogika, innovatsion.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: "Ta’lim - O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik, faollikni baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi" [1]. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda ta’limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish lozim bo‘ladi.



### **„Yomg‘ir“ metodi**

Ta'lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyatga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi. Boshlang‘ich ta'lim umumta'lim mакtablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e'tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular mакtab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni mакtab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.



### **„Quruq gultuvak ”metodi**

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta’lim tizimida innovatsion deyilganda ta’lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish , yangicha yondashish , pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta’limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ta’limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;

3. Ta'limiyo yinlarni o'tkazish vaqtani aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiyo yinlar ham ta'limiyo, ham tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiyo yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.



### **„Sirli idish“ metodi**

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish konikmalarini takomillashtira boorish bilan bir qatorda oquvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida boladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish darslari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishslash ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar va ularda kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi. Mazkur jarayonning sifatli va samarali amalga oshirilishi bevosita o'qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bogliqdir.



**„Sirli sandiq sabollari” metodi**

Respublikamiz ta'lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamlı ishlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o‘z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Texnika vositasini ta'lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Bunday ta'lim manbalariga elektron darsliklar, qollanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, internet materiallari kiradi.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- Oquv jarayonining jadallahuvini ta'minlaydi;
- O‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi;
- O‘quvchilarda bilimlarni egallahsga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- O‘quvchilarning dunyoqarashi, ishonchi va axloqiy qiyofasini shakllantirib beradi;ta'minlaydi;

O‘quv ishiga nisbatan o‘quvchilarda emotsiyonal munosabatni oshirishni

- Bilimlarni va o‘z-ozini nazorat qilishni ta'minlaydi.



**„Quvnoq charxpalak“ metodi**

O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. "Baliq skeleti" texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepe qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida "Yo‘l qoidalari" mavzusida "Svetofor nima uchun kerak?" muammosi qo‘ylisa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Unda "Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratadi", deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda : "Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv - uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv - tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minalash "umumiyl o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi.

## "Oltin toj"

Ushbu usulni qo'llashdan asosiy maqsad - o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini shakllantirish, hamkorlikni yo'nga qo'yish ,fikrlash doirasini yanada kengaytirish,tirishqoqlik va faoliikka undash.

Ushbu usulni qo'llash jarayonida o'quvchilarning "Oltin toj ni" qo'nga kiritishga bo'lgan intilishi fanga bo'lgan qiziqishini, ishtiyoqini oshiradi.Izlanuvchanligi va faolligi oshib boshqa o'quvchilarga o'rnat bo'ladi

Ushbu usulni qo'llash uchun quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Sinf ikki guruhga bo'linadi.
2. Guruhlar nomlanadi.
3. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.
4. O'quvchilarga berilgan har bir toshinig bo'yicha o'quvchilar rag'battantiriladi.
5. Darsning baholash qismida golib guruhnинг eng faol o'quvchisi "**Oltin toj**" sohibi bo'ladi.
6. "**Oltin toj**" sohibi keyingi darsda o'quvchilarga o'z "**xazinas**" dan rag'bat kartochkalarini tarqatadi.



Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan,innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar vakreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi,deb o'ylayman. Men o'z ish faoliyatim davomida ko'pgina innovatsion g'oyalardan,turli xil didaktik o'yin mashqlardan keng ko'lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham o'quvchiuchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.Men o'qish darslarida ayniqsa, "Yosh aktyorlar", "Quvnoq quyonchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o,'qi" kabi usul va ta'limiy mashqlardan ko,,p foydalanaman. Bu albatta,ko'pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

**OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH**

## “Multfilmda mening ovozim” metodi

Ta'lif jarayonida ushbu metodni qo'llashdan maqsad- o'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirish, sof davlat tilida so'zlashishlariga erishish, mustaqil fikrleshishga o'rgatish, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish va darsni yanada qiziqarli o'tishiga erishish.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- 1) kompyuterning “Pinnacle Studio” dasturi yordamida multfilmning ovozi o'chirib tashlanadi;
- 2) o'qituvchi mavzudan kelib chiqib, multfilm qahramonlariga matn yaratadi;
- 3) o'quvchilarga ro'llar bo'lib beriladi;
- 4) o'quvchilar multfilmdagi ro'llarga ovoz beradilar.
- 5) dars jarayonida multfilm qo'yib beriladi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif-tarbiya berish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirda axborot texnologiyalardan samarali foydalangan holda ta'lif jarayonini amalga oshirish pedagog xodimlarning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Albatta, bu jarayonni amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanish davr taqozosidir. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham maqolada keltirib o'tilgan texnik vositalardan samarali foydalangan holda ta'lif jarayonini tashkil etishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nutqi.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova va boshqalar. Umumiy pedagogika - T.: "Fan vatexnologiya" nashriyoti, 2018. 190-bet
3. R.A.Mavlonova, N.A.Rahmonqulova va boshqalar. Umumiy pedagogika - T.: "Fan vatexnologiya" nashriyoti, 2018. 460-461-betlar
4. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lif muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)- Qarshi: 2011.
5. Tolipov O,,, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006
6. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
7. Internet ma'lumotlar.